

## **TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA TA'LIM SIFATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING METODIK ASOSLARI.**

**Xudoyberdiyev Pardaboy,**  
JDPI Tasviriy san'at va muxandislik  
grafikasi kafedrasi mudiri

**Annotatsiya:** Xar bir sohaning faoliyat qonuniylari, amal qiladigan tendensiya, qo'llaniladigan texnologiya hamda yondashuvlari mavjud. San'at soxasi bundan mustasno emas. San'atning barcha turlarida bo'lganidek, tasviriy san'atda ham o'zining xususiyatlarini tavsiflovchi omillar, xususiyatlar hamda parametrlari mavjud.

**Kalit so'zlar:** Tasviriy san'at, manzara janri, Didaktik, Perspektiva, tur va janrlari, rangtasvir, idrok etish

Xar bir sohaning faoliyat qonuniylari, amal qiladigan tendensiya, qo'llaniladigan texnologiya hamda yondashuvlari mavjud. San'at soxasi bundan mustasno emas. San'atning barcha turlarida bo'lganidek, tasviriy san'atda ham uzining xususiyatlarini tavsiflovchi omillar, xususiyatlar hamda parametrlari mavjud. Bu jixatlar uning tur va janrlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham umumiyl o'rta ta'lim maktabalarida amalga oshiriladigan badiiy ta'lim tizimida o'quvchilarning tasviriy san'atning tur va janrlari haqidagi nazariy bilim hamda amaliy malakalarini shakllantirishga o'quvchilarning badiiy-estetik saviyasini oshirishning muhim omili, tasviriy san'at ta'limining asosiy komgyunentlaridan biri sifatida qaraladi. Shuning uchun o'quvchilarning bu boradagi nazariy bilim va amaliy ko'nikmalari

tasviriy san'at ta'limi sifati va samaradorligini ta'minlashning muhim shartlaridan biri xisoblanadi. Didaktik qulaylik, imkoniyat nuqtai nazaridan soddadan murakkabga prinsipi samaradorlikni ta'minlash borasida bir qator qulayliklarga ega. Shu ma'noda didaktik qulaylik nuktai nazaridan ta'limiy va tarbiyaviy imkoniyatlari kengroq janrlarga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Bu borada, shubxasiz, tasviriy sana'tning manzara janrining imkoniyatlari ko'proq.

Manzara san'atshunoslik termini sifatida, asosan, "peyzaj" (fransuzcha "paysage" - joy, makon, tabiat ma'nosini anglatadi) tarzida qo'llaniladi. Uning janr sifatidagi ifoda vositalarining rang-barangligi bois rangtasvir soxasida asarlar yaratiladi. Chunki tabiat manzarasining go'zalligi undagi detallarning guzalligi bilan bir qatorda ranglarning turli-tumanligida namoyon bo'ladi. Bu omil o'quvchilarda rangshunoslikka oid nazariy bilimlarni amaliy qo'llash uchun keng imkoniyatlar taqdim etadi. Shunday bo'lsada, grafik rassomlar ham grafikaning turli texnikalarida jozibali manzara asarlari yaratganlar. Grafik rassomlar Marat Sodiqov, Iskandar Vaxitov, Georgiy Chiganov, Medet Kagarov kabi rassomlarning grafika texnikasidagi manzaralari diqqatga sazovordir. Ularning tajribalari, asarlaridan o'quvchilarning manzara janrida rasm ishlashning qalamtasvir asoslarini egallashlari uchun o'ziga xos na'muna sifatida foydalanish ularning ranggasvirda manzara ishlashlarida tasviriy san'at qonuniyatlari nuqtai nazaridan ishning belgilangan tartiblar darajasida bo'lishini ta'minlaydi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida amalga oshiriladigan tasviriy san'at ta'limi mazmunida o'quvchilarni manzara chizishga o'rgatish murakkab mavzular sirasiga kiradi. Bu murakkablikni quyidagi omillar bilan izohlash mumkin.

Birinchidan, o'quvchilarning manzara chizish yuzasidan dars maqomidagi amaliy mashg`ulotlarini tashkil etish imkoniyatlari cheklangan. Ikkinchidan, ochiq tabiat quynida, bevosita ob'ektdan, naturadan rasm ishslash sinf sharoitidagi vaziyat, xolat, tartib va uning imkoniyatlaridan keskin farq qiladi. Agar sinf shiroitida o'quvchilar statik vaziyatdagi aniq naturadan rasm chizsalar, tabiatda xar tomonlama, ayniqsa, kunning xarakati natijasida yorug-soya xolatlarini o`zgaruvchanligi tufayli ob'ektning rangshunoslik yechimlarini tez va to'g'ri xal etish, ob'ektlarni umumiy aloqadorlikda tasvirlash borasida qiyinchiliklar yuzaga keladi. Qolaversa, tabiatda ranglarning o'zaro ta'siri ham boshqacha ko'rinishga ega bo'ladi.

O'quvchilarni manzara janrida rasm ishslashga oid nazariy bilim va amaliy malakalarini shakllantirishda quyidagi komponentlarga e'tibor qaratiladi:

- manzara janrini tasviriy san'atning mustaqil janr sifatida shakllanishi va taraqqiy etish bosqichlari, uning tarixiy ildizlari;
- mashxo'r manzarachi rassomlarning ijodi (milliy va jaxon tasviriy san'atining qiyosiy tahlili misolida);
- manzara janrida amal qilinadigan qonuniyatlarning nazariy va amaliy asoslari (rang, kolorit, gamma, chiziqli va xavo (rang) perspektivasi, kompozitsiya, natura va boshqa elementlarni manzara ishlashdagi o'rni va mohiyati)\*
- manzara ishlashda yordamchi vositalardan foydalanish tartibi (qalamda ishlangan qoramalar, rangda ishlangan qisqa muddatli ranglavxalar va ularni yaxlit kompozitsiyaga birlashtirishga oid kombinatsiyalar va x.k.);
- o'quvchilarni manzara maqomlarini (industrial manzara, qishloq manzarasi, togli manzara. shaxar manzarasi va x.k.) anglashga o`rgatish;

- manzara kompozitsiyasining mazmuni va motivlari (ulugvor romantik, lirik, ijtimoiy-falsafiy va b.), talqin etilayotgan voqeliqning xususiyatlari.

O'quvchilarni manzara janrida tasviriy faoliyat kursatishga o`rgatish gizimida ularni mazkur janrni tasviriy san'atning aloxida janri sifatida shakllanishi va taraqqiy etishi haqidagi ma'lumotlar bilan tanishtirish, shuningdek, manzara janrida yaratilgan kartinalarning xususiyatlari ga, jumladan, ularning mazmuni, asarda ilgari surilgan motivlarga ko'ra maqomini aniqlash. mustaqil ijodiy faoliyatda unga amal qilish malakalarini shakllantirish alohida ahamiyatga molik ta'limiy vazifalar sirasiga kiradi. Bu omil o'quvchilarda manzarachi rassomlarning asarlarini badiiy-estetik idrok etish, ularning ijodidagi uziga xoslikni anglashga oid bilimlarini shakllantirish hamda olingan tasavvurlarni shaxsiy tasviriy-ijodiy faoliyatga tatbiq etish malakalarini shakllantirish va rivojlantirishda muhim, ro'1 o'ynaydi.

Aynan turli motivlar asosida yaratilgan manzara asarlarini to`gri idrok etishga oid tasavvurlar o'quvchilarning shu yunalishdagi bilimlarining ko'lami, mazmuni va sifatini belgilab beradi. Demak, o'ituvchi o'z pedagogik faoliyatida o'quvchilarda manzara ishlash malakalarini shakllantirishda qo'llaydigan metodik yondashuvlarida manzara maqomini belgilash (aniqlash) va unga oid bilimlarni amaliy faoliyatda qullay olishga o`rgatishni nazarda tutmog`i lozim.

Perspektiva barcha ob'ektlar, buyumlarning konstruksiyalari, shakli ularning makondagi to'g'ri tasvirlashni ta'minlaydi. Faoliyag(janrlar)ning boshqa turlariga nisbatan manzarada perspektivaning ikki ko`rinishi - chiziqli va rangli perspektivaga amal qilinishi yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan, natyurmort yoki portret janrlariga tatbiqan bu qonuniyat o'quvchilar gomonidan har doim ham to'g'ri bajarilmasligi mumkin. Chunki bu holat

mazkur janrlarda yaqqol kuzga tashlanmaydi. Manzara janriga mansub asarning shartli ravishda uch o`lchovli bo`lishini ifodalovchi illyuzionistik talqin zamirida tasvir ob`ektidagi borliq, undagi detallarning joylashuvini belgilab beradi. Demak, tasviriy san'at o'qituvchisining pedagogik faoliyatida o'quvchilarda bu yunalishdagi malakalarni shakllantirishga oid kursatmalari o'quvchilarining tasviriy savodxonligini oshirishning yetakchi omillaridan biri xisoblanadi. Shuning uchun ham tasviriy san'at darslarida o'quvchilarda manzara ishslashga oid malakalarni shakplantirish va rivojlantirishda ularning perspektivaga oid nazariy bilimlari va amaliy-ijodiy malakalarini tarkib toptirishga ustuvor tarzda qaralishi talab etiladi. Chunki tasviriy san'atning bu janrida mazkur qonuniyatga amal kilmaslik natijasida detallarning uzokdashgan sari kiskarib borishi (chiziqli perspektiva), ranglarni esa xiralashib, umumiyligiga ayylanib borishi (xavo (rang) perspektivasi) kabi qonuniyatlargacha amal kilmaslik manzara janrining muhim ko`rsatgichi - ob`ekt (manzarining planliligini buzilishiga olib keladi. Shuning uchun ham o'quvchilarda manzara ishslash malakalarini shakllantirishda perspektiva qonuniyatlarini tushuntirish tasviriy san'at ta'limining dolzARB masalalaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Tasviriy san'at o'qituvchisining pedagogik faoliyatida o'quvchilarining ishlarida kuzatilayotgan xatolarni tahlil qilib borish va ularga mos metodik yo`nalish va yordam berib borish tasviriy san'at ta'limining barcha sohalari (faoliyat turlari) buyicha ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim omiliidir. Shuningdek, kamchiliklarning faoliyat turlari, janrlar buyicha klassifikatsiyalab borish mavjud kamchiliklarni batratarf etishga yunaltirilgan metodikani to'g'ri tanlash imkonini beradi.

O'quvchilarining ishlarida kuzatiladigan elementar xatoliklar sirasiga ularning manzara tasvirida xavo perspektivasi qonuniyatlariga amal

qilmasliklarini kiritish mumkin, ya’ni chiziqli perspektiva qonuniyatiga kura kurish nuqtasidan uzoqlashgan detalning nafakat o`lchamlari qisqaradi, balki ranglari ham umumiyya qarab boradi va uni to’g’ri tasvirlay olish o’rtta va orqa planlardagi detallarni yaxlit tarzda tasvirlash imkonini beradi. Bu talablarni e’tiborga olmasdan to’g’ri manzara tasvirini hosil qilib bo’lmaydi.

Tasviriy san’at o’qituvchisinipg o’quvchilarda manzara ishlash malakalarini shakllantirish jarayonida qullaydigan metodikasida o’quvchilarda tasvirlanayotgan manzaraning maqomini to’g’ri belgilashga yunaltirish, ijodiy topshiriq; mazmunini shunga monand tanlash tavsiya etiladi. Shundagina aniq maqom (kurinish)dagi manzara, masalan, lirik kayfiyatdagi (erta tong, charogen kun, sokin okshom, kun botishi va xk. mavzular) manzara ishlashda boshqa ko’rinishdagi manzara kompozitsiyalariga nisbatan uzbekcha detallar qo’llaniladi. Manzara ishlashning bu omillarini o’qituvchi professional rassomlar tomonidan ishlangan manzara janriga oid tasviriy san’at asarlarining reproduksiyalari - illyustrativ materiallarni namoyish etish hamda o’quvchilar bilan utkaziladigan savol-javoblar vositasida rassom tomonidan qo’llanilgan badiiy-tasviriy vositalarni tahlil qilish orqali tushuntirib berishi tavsiya etiladi, ya’ni nazariy asos bilan amaliy tatbiqni alokadorlikda qo’llash malakalarini shakllantirish orqali o’quvchilarda manzara ishlashga oid amaliy-tasviriy kompetansiyalarini rivojlantirib borish mumkin.

Maktab o’quvchilarining yoshi, tasviriy-ijodiy malakalarining shaklanganlik va rivojlanganlik darajasiga ko`ra kup detalli manzara ishlash tavsiya etilmaydi. Chunki detallarning ko`pligi ularning kompozitsion yaxlitligini, tasvirning umumiy xolati (kompozitsiyasi, kolorita va boshqa ko`rsatgichlari)ni ta’minlash imkoniyatlarini cheklab quyadi.

Bu turdagи manzara asarlarining e’tiborli jixati shundaki, ularda yirik

planlar asosiy ob'ekt sifatida tanlanmaydi, balki oddiygina kucha, uyning bir kismini muayyan vokelik bilan alokadorlikda tasvirlanishi bilan ajralib turadi. Ularda oddiy vokelikka poetik ruh berish asosiy motiv sifatida tasvirlanadi.

Zamonaviy ta'lurma, ayniqsa, badiiy ijodiyot bilan bog`liq soxalarda bolalarining iqtidorlariga ko`ra tabaqalashtirilgan yondashuv qo`llanishi ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim omili xisoblanadi. Tasviriy san'at ta'limining aynan shu yunalishida tabaqalashtirib o`qitish, ya`ni o'quvchilarining badiiy-tasviriy iqtidori va imkoniyatiga qarab topshiriq berilishi sinfdagi umumiy sifat va darajani ko'tarishga xizmat qiladi. Chunki nisbatan murakkabroq topshiriq olgan va uni talab darajasida bajargan iqtidorli o'quvchilar o'zlarining ijodiy faolligi va intilishi bilan boshqa o'quvchilarga ijobiy ta'sir etadi. Bu omil tasviriy san'at ta'limi sifatini oshirishning samarali omillaridan biridir. Shu ma'noda tasviriy san'atning alohida tur va janrlariga nisbatan ko`proq qiziqish bildirgan va bu borada boshqalarga nisbatan ko`proq, yaxshiroq (savodliroq) ishlayotgan o'quvchilarining faoliyatlaridan ijobiy xolat sifatida foydalanishga ham alovida e'tibor qaratish lozim. O'quvchilar orasida esa manzara janriga qiziquvchilar ko'pchilikni tashkil etadi. Kezi kelganda ta'kidlash joizki, odatda, tasviriy san'at ta'limi mazmunida o'quvchilarni manzara ishlashga o`rgatish darslari qiziqarli kechadi. Chunki buning uchun ob'ekt, mavzu va uning mazmuni, motivlarini tanlashda o'quvchining xotirasi, taassurot va tasavvurlarini maksimal darajada ijodiy topshiriqni bajarishga qulay muxit, sharoit mavjudligi bois o'quvchilar jarayonda faol ishtirok etadilar. To'g'ri yo'naltirilgan faollik esa ta'lim sifati va samaradorligini oshirishni ta'minlaydi.

Umumiyl o'rta ta'lim maktablarida amalga oshiriladigan badiiy ta'lim tizimida o'quvchilarining tasviriy san'atning tur va janrlari haqidagi nazariy

bilim hamda amaliy malakalarini shakllantirish tasviriy san'at ta'liming muhim komponentlaridan biri xisoblanadi. Shuning uchun o'qituvchining o'quvchilarda manzara ishlash malakalarini shakllantirish megodikasiga oid kasbiy kompetensiyasi umumiyligi o'rta ta'limga muktablarida tasviriy san'at ta'limi sifati va samaradorligini oshirishning muhim komponenti sanaladi.

Tasviriy san'at darslarida o'quvchilarni manzara ishlashga o'rgatishga oid metodik ishlar tizimida maxalliy xarakterdagi materiallardan foydalanishga aloxida e'tibor karatiladi. Chunki maxalliy material, u kanday shaklda bo'lishidan kagi nazar, birinchidan, o'quvchilarga tanish bo'ladi, ikkinchidan, o'quvchilarga tanish bo'lganligi uchun idrok etish jarayoni oson hamda zavkli kechadi. Maxalliy materiallar deganda xududning manzarsasi, maxalliy rassom larning manzara janridagi asarlaridan ijodiy foydalanish kabi xususiyatlarni tushuntirish nazarda tutiladi.

Tabiat ko`rinishlaridagi xududiy o`ziga xoslik o'quvchilarni manzara ishlashga o'rgatish metodikasining ikkinchi muhim xususiyati xisoblanadi. Pedagogik nuqtai nazardan o'quvchilarga bu tasviriy-ifodaviy elementlarni tushuntirishda tasvir ob'ekti (tabiat manzarasi)ni tanish bilishi jarayonni tushunarli va oson kechishini ta'minlaydi. Shu ma'noda tog'li xududlar — Fargona vodiysi, Surxonlaryo va Qashqadaryo viloyatlarining ayrim tumanlari manzaralari bilan chulli xududlar - Buxoro, Navoiy, Qoraqalpogiston Respublikasi, Qashqadaryo viloyatining ayrim xududlari, Sirdaryo va Jizzax viloyatlarining manzaralarida keskin farq kuzatiladi. Biroq, bu o'quvchilarga faqat tanish manzaralarni chizishni o'rgatish lozim, degan xulosani keltirib chiqarmasligi kerak. Faqatgina notanish ob'ektlar misolida manzara ishslash darslarida o'quvchilarning badiiy tafakkurlarini maksimal darajada safarbar qilish, buning uchun xotiradagi tasavvurlarni tiklashga oid yunaltiruvchi

savollar, tavsiya va maslahatlar berish orqali o'quvchilarga notanish ob'ekt va uni tasvirlash tartiblari xususida yetarli tushuncha berish lozim. Shuning uchun ham o'qituvchidan bolalarni manzara chizishga o`rgatish metodikasida mazkur omilga amal qilish, uni samarali vositalar bilan ta'lif amaliyotiga tatbiq etish talab etiladi.

Manzara janrida ishslashda rasomlar tomonidan alohida e'tibor qaratiladigan uchinchi element sifatida manzara detallari (daraxt, tog', tosh, suqmoq, jilga, jonli mavjudod figuralari va xk.)ni e'tirof etish mumkin. Masalan, bo'lutlar tabiat manzarasining kayfiyatini belgilab berishning muhim komponenti xisoblanadi. Tasvirlangan manzarada bo'lutning yukligi ham bir yondashuv, ijodiy topilma, aslida. Biroq, manzarada bu elementlarni xaddan ziyod ko`p bo'lishi ham umumiyligi o'rta ta'lif maktabi o'quvchilariga murakkablik qilishi mumkin. Zero, xar bir detalni ishslash, ayni paytda ularni tasvirning umumiyligi xolati (kompozitsiyasi, koloriti va boshqa ko`rsatgichlari)ga buysunishini saqlab qolish talab etiladi.

Tasviri san'at o'qituvchisining o'quvchilarni manzara ishslashga o`rgatish metodikasida tasvir uchun tanlanadigan ob'ektning tasvir mazmuni bilan mutanosibligiga alovida e'tibor qaratiladi. Masalan, ona yurtim saxovati deb ataluvchi manzara kartinasi yaratiladigan bo'lsa, albatta inson uchun rizq-ro'z unadigan joylar (masalan, boglar, bugdoyzor, poliz ekinzorlari va x.,k.) tanlanishi tavsiya etiladi. Shuningdek, ob'ekt tanlashda maktab o'quvchilarini katta xajmdagi manzara ishslashga da'vat etish maqsadga muvofiq emas. Shuning uchun o'qituvchining pedagogik faoliyatida qo'llaniladigan metodik yondashuvlarida mavzu-mazmun-ob'ekt mutanosbili masalasini o'quvchilarga ishonarli tarzda tushuntirish metodlari mavjud bo'lmogi lozim.

O'quvchilarni manzara ishslashga o`rgatish metodikasi tizimida tasviriy san'atning qonuniyatlaridan foydalanish imkoniyatlarini tavdim etilishi muhim rol uynaydi. Ayniqsa, manzara ob`ekti perspektiva qonuniyatlarini ifodalash uchun qulay joy bo'lislini ta'minlash maksadida ob`ektdagi detallarning o`lchami uzoqlashgan sari kichrayib borishi (chiziqli perspektiva) va ranglarini xiralashib, umumiy xolatga kelishi (xavo perspektivasi) kabi jixatlarni tasvirlay olish uchun planlilik yaqqol ko'zga tashlanadigan ob`ekt tanlanadi.

O'quvchilarni manzara ishslashga o`rgatishda iqtidorli o'quvchilar bilan ishslash masalasi ham badiiy ta'limning muhim masala1ari sirasiga kiradi. Zero, tasviriy san'atda uning aniq bir janriga (portret, natyurmort, manzara va x.k.) alohida qiziqishi bo'lgan o'quvchilar bilan ishslashda qo'shimcha materiallarga monand tarzda ularga mos metodlardan foydalilaniladi. Bu omilning ta'limiy va tarbiyaviy samarasi shundaki, iqtidorli o'quvchilar o'zlarining ijodiy faolligi va intilishi bilan boshqa o'quvchilarga ijobiy ta'sir etadi. Natijada sinfning umumiy badiiy qiziqish darajasi ortib boradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Abdirasilov S "Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi" o'quv qo'llanma Toshkent. "Ilm-ziyo"-2011 yil
2. Abdirasilov S Tolipov N Tasviriy san'at o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma Toshkent Aloqachi, 2007 yil.
3. Abdirasilov S. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi. Darslik Toshkent Fan va texnologiya nashriyoti 2012 yil
4. Ro'ziyev E.I., Ashirboyev A.O. „Muhandislik grafikasini o'qitish metodikasi“ darslik Toshkent „Fan va texnologiya 2010 yil.